

***(Kafillik ofertasi namunasi. Ushbu ofertadan Bankning veb-servisida mikroqarz ajratilganda foydalaniladi.***

***Kafillik ofertasi – O‘zbek tilida)***

**KAFILLIK OFERTASI**

Mazkur Oferta AT “Aloqabank” (bundan buyon matnda “Bank” deb yuritiladi) tomonidan jismoniy shaxslar bilan Kafillik shartnomasini (bundan buyon matnda “Shartnoma” deb yuritiladi) tuzish bo‘yicha rasmiy taklifi hisoblanadi.

Kafillik beruvchi jismoniy shaxs (bundan buyon matnda “Kafil” deb yuritiladi) hamda mikroqarzdin foydalanish istagida bo‘lgan jismoniy shaxs (bundan buyon matnda “Qarz oluvchi” deb yuritiladi) Oferta shartlari bilan tanishib to‘liq va e‘tirozsiz aksept qilganidan so‘ng Shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi.

Bank tomonidan Qarz oluvchi hamda Kafilga yuborilgan SMS-xabarda ko‘rsatilgan kodni ofertani tasdiqlash uchun kiritishi orqali yoki Bank tomonidan taklif qilingan boshqa usul orqali tasdiqlashi mazkur ofertani qabul qilish va akseptlash deb baholanadi.

**I. ATAMALAR**

1.1. Mazkur ofertada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

**Mikroqarz** – Bank tomonidan qaytarishlik, to‘lovlilik, muddatlilik va ta‘minlanganlik tamoyillari asosida, milliy valyutada, jismoniy shaxslarga (Qarz oluvchilarga), mazkur ofertada nazarda tutilgan hamda Mikroqarzning individual shartlarida belgilangan shartlar asosida Bank tomonidan Qarz oluvchiga taqdim etiladigan ma‘lum miqdordagi pul mablag‘lari.

**Qarz oluvchi** – Mikroqarzdin foydalanish istagida bo‘lgan, Mikroqarz rasmiylashtirish uchun Bankka ariza taqdim etgan va mikroqarz ofertasida belgilangan shartlar asosida mikroqarz rasmiylashtiruvchi jismoniy shaxs.

**Kafil** – qarz oluvchining mikroqarz bo‘yicha barcha majburiyatlarini (hozirda mavjud bo‘lgan va vujudga kelishi mumkin bo‘lgan) bajarishi uchun qarz oluvchi bilan solidar tartibda Bank oldida javob berishni o‘z zimmasiga oluvchi jismoniy shaxs.

**Mikroqarz ofertasi** – Bank tomonidan tasdiqlangan, Bank tomonidan keng ommaga e‘lon qilingan, unda ko‘rsatilgan shartlar asosida mikroqarz ajratish bo‘yicha taklif;

**Kafillik ofertasi** – Bank tomonidan tasdiqlangan, Bank tomonidan keng ommaga e‘lon qilingan, unda ko‘rsatilgan shartlar asosida kafillik shartnomasi tuzish bo‘yicha taklif;

**Veb servis** – Bank tomonidan mikroqarz ajratish uchun foydalaniladigan Bankning elektron dasturiy vositasi.

**Aksept** – Kafilning roziligini bildirishga, kafillik berish uchun Bank tomonidan taklif qilingan shartlarni qabul qilishga yo‘naltirilgan harakatlari.

**II. SHARTNOMA PREDMETI**

2.1. Kafil Qarz oluvchi o‘z majburiyatlarini to‘la bajarishi uchun Bank oldida ushbu shartnomada nazarda tutilgan holatlarda va shartlarda javob beradi.

**III. UMUMIY QOIDALAR**

3.1. Kafil Bank va Qarz oluvchi o‘rtasida tuzilgan \_\_\_\_ . \_\_\_\_ . \_\_\_\_ yildagi \_\_\_\_ -

*(mikroqarz shartnomasi sanasi raqami)*

sonli mikroqarz shartnomasi bo'yicha mazkur Shartnoma asosida Qarz oluvchining barcha majburiyatlari (hozirda mavjud bo'lgan va kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan) bajarilishi yuzasidan Bank oldida solidar tartibda javob berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

3.2. Kafillik bilan ta'minlangan majburiyatlarga Qarz oluvchining Bank oldidagi mikroqarz shartnomasi bo'yicha hozirda mavjud bo'lgan va kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan jami qarzlari, shu jumladan mikroqarzning asosiy summasi, mikroqarzga hisoblangan foizlar, neustoykalar, haqiqiy zarar, boy berilgan foyda, sud harajatlari, ijro yig'imi, qarzdorlikni undirish uchun uchinchi shaxslarga to'langan pullar va boshqa summalar kiradi.

3.3. Kafillik bilan ta'minlangan majburiyatlarni Qarz oluvchi bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda, Bankning birinchi talabiga asosan, Kafil barcha qarzlarni Kredit shartnomasida Qarz oluvchining majburiyatlari bilan belgilangan muddat va miqdorda to'laydi.

3.4. Bank Kafilning AT "Aloqabank"da, hamda boshqa banklarda ochilgan har qanday hisobvaraqlaridan, shu jumladan bank kartalaridan kredit bo'yicha talablarni qondirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni (so'zsiz, roziligisiz) akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish (echib olish) huquqiga ega va Kafil bunga o'z roziligini bildiradi.

3.5. Mikroqarz shartnomasi bo'yicha Qarz oluvchining majburiyatlarini bajargan Kafilga Bankning ushbu majburiyat bo'yicha huquqlari hamda garovga oluvchi sifatida Bankga tegishli bo'lgan huquqlari Kafil Bankning talabini qancha hajmda qanoatlantirgan bo'lsa, shuncha hajmda o'tadi.

3.6. Mikroqarz summasi: \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) so'm.

*(miqdori) (miqdor so'z bilan)*

3.7. Kafillik summasi: \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) so'm.

*(miqdori) (miqdor so'z bilan)*

3.8. Mikroqarz muddati: \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_), \_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. gacha.

*(muddat) (muddat so'z bilan) (sana)*

3.9. Mikroqarz bo'yicha foiz stavkasi – yillik \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) foizni tashkil

*(miqdori) (miqdor so'z bilan)*

etadi. Bunda, foizlar mikroqarz ajratilgan kundan boshlab mikroqarzning asosiy qarzni to'liq qaytarilgan kunigacha mikroqarzning qoldiq summasiga kunlik hisoblab boriladi. Foizlar yiliga 365 kunlik asosda hisoblanadi.

3.10. Mikroqarzning muddati o'tgan asosiy qismi uchun oshirilgan foiz stavka: Shartnomaning 3.9-bandidagi foiz stavkaning \_\_\_\_ barobarini, ya'ni \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_)

*(miqdori) (miqdori) (miqdori so'z bilan)*

foizni tashkil etadi.

3.11. Shartnoma bo'yicha Kafil quyidagilarga roziligini bildiradi:

- shaxsga doir ma'lumotlari olinishiga hamda ma'lumotlariga ishlov berishga;
- aloqa vositalaridan foydalangan holda sms/elektron pochta/audio eshittirish/pochta jo'natish, axborot-kommunikatsiya xizmatlari orqali pochta jo'natmalarini va bildirishnomalarni jo'natishga;
- Davlat personallashtirish markazidan olingan shaxsiy ma'lumotlarini qayta

ishlashga hamda kredit byurolari, soliq organlari uy-joy kommunal xizmatlari, uyali aloqa operatorlari, protsessing markazlari (Uzcard, Humo va boshqalar) tijorat banklari va boshqa tashqi manbalardan shaxsiy ma'lumotlardan foydalangan holda ma'lumotlarni olishga;

- Bank Kafilning AT "Aloqabank"da, hamda boshqa banklarda ochilgan har qanday hisob varaqlaridan, shu jumladan bank kartalaridan kredit bo'yicha talablarni qondirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni avtomatik hisobdan chiqarish xizmati orqali yechib olinganda Bankning amaldagi Tarifida nazarda tutilgan miqdorda xizmat haqini (so'zsiz, roziligisiz) akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish (yechib olish)ga.

#### **IV. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

##### **4.1. Bankning huquqlari:**

4.1.1. Kafil tomonidan Mikroqarz bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarilishi to'g'risida ma'lumotlarni Kredit byurolari va Kredit ma'lumotlarining davlat reestriga taqdim etish;

4.1.2. Mikroqarz bo'yicha to'lovlar haqida Kafilga xabar berish uchun Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallaridan foydalanish;

4.1.3. Mikroqarz shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni Qarz oluvchi bajarmagan taqdirda, Kafilning Bankda hamda boshqa banklarda ochilgan har qanday hisobvaraqlaridan, shu jumladan, bank kartalaridan Mikroqarz bo'yicha talablarni qondirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni va barcha hisoblangan neustoykalarni akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish (yechib olish);

4.1.4. Bank Kafilning AT "Aloqabank"da, hamda boshqa banklarda ochilgan har qanday hisob varaqlaridan, shu jumladan bank kartalaridan kredit bo'yicha talablarni qondirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni avtomatik hisobdan chiqarish xizmati orqali yechib olinganda Bankning amaldagi Tarifida nazarda tutilgan miqdorda xizmat haqini (so'zsiz, roziligisiz) akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish (yechib olish);

4.1.5. Qarz oluvchi mikroqarz shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Kafilning barcha hisobvaraqlaridagi mablag'lari hisobidan hamda barcha mol-mulklari (mulkiy huquqlari)dan undirish;

4.1.6. Kafil tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish yoki qo'shimcha identifikatsiya (shaxsni tekshirish) jarayonini amalga oshirish uchun Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali Kafil bilan bog'lanish;

4.1.7. Kafilning to'lov qobiliyatini baholash jarayonida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan Kafil to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarni olish va ulardan foydalanish;

4.1.8. Kafilning telefon raqamlariga, ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlari orqali bog'lanish va ularni yozib olish, Kafilning Bankka ma'lum bo'lgan manzillariga (rekvizitlariga) ushbu Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchining hamda Kafilning majburiyatlarini bajarish to'g'risida xatlar, elektron pochta xabarlari va SMS-xabarlarni yuborish.

##### **4.2. Bankning majburiyatlari:**

4.2.1. Mikroqarz muddatidan oldin undiriladigan hollarda ushbu to'g'risida Kafilni Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallaridan foydalangan holda xabardor qilish;

4.2.2. Bank tomonidan mikroqarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklarni so'ndirish uchun Kafilning bank hisobvarag'i va (yoki) omonatidan (shu jumladan, bank kartalaridan) mablag'lar Kafilning topshirig'isiz hisobdan chiqarilganda, ushbu mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Kafilga uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko'rsatgan holda Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborish.

#### **4.3. Kafilning huquqlari:**

4.3.1. Mikroqarzni istalgan vaqtda muddatidan oldin jarima sanksiyalarisiz so'ndirish;

4.3.2. Mikroqarz bo'yicha barcha to'lovlar Bankka to'liq qaytarilganda ushbu Shartnomani muddatidan avval bekor qilish.

#### **4.4. Kafilning majburiyatlari:**

4.4.1. Qarz oluvchi o'z majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda Bank oldida solidar tartibda javob berish;

4.4.2. Qarz oluvchi tomonidan olingan mikroqarz va unga hisoblangan joriy hamda muddati o'tgan foizlar o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda ularni to'lash, qarzni undirib olish bo'yicha sud chiqimlarini va Qarz oluvchi majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli Bank ko'rgan boshqa zararlarni to'lash;

4.4.3. Shartnoma bo'yicha Bank Kafilning hisobvarag'idan pul mablag'ini yechib olganligi uchun Bankning amaldagi tariffiga asosan bank xizmat haqini to'lash;

4.4.4. Familiyasi yoki ismi, telefon raqami, ro'yxatdan o'tgan manzili, yashash joyi, passport ma'lumotlari o'zgarganda va Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir qiladigan boshqa holatlar haqida 3 (uch) ish kuni ichida Shartnomada belgilangan aloqa kanallari orqali yoki Bankning xizmatlar ko'rsatish markazlariga borgan holda Bankka xabar berish;

4.4.5. O'ziga nisbatan huquqni muhofaza qilish organlari, nazorat qiluvchi organlar yoxud sudlar tomonidan qo'llanilgan yoki qo'llanilayotgan huquqiy ta'sir choralari, iqtisodiy, moliyaviy jarimalar va iqtisodiy, moliyaviy sanksiyalar to'g'risida unga ma'lum bo'lgan kundan boshlab Bankka 2 (ikki) ish kuni ichida xabar berish;

4.4.6. Tijorat banklarida ochilgan barcha bank hisobvaraqlaridan Shartnoma bo'yicha to'lov majburiyatlarini amalga oshirish uchun zarur summani akseptsiz hisobdan chiqarish to'g'risida haqiqiy, chaqirib olinmaydigan va so'zsiz talab qo'yish huquqini Bankka taqdim etish.

## **V. MAJBURIYATLARNI BAJARMASLIK HOLATLARI**

5.1. Quyidagi hodisalarning har biri majburiyatlarning bajarilmasligi holati hisoblanadi:

5.1.1. Shartnomada belgilangan muddatlarda mikroqarz, foizlar va/yoki boshqa to'lovlar amalga oshirilmaganligi;

5.1.2. Kafil tomonidan qasddan bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan va haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlarni bergan holda Bankni chalg'itish;

5.1.3. Kafilning to'lovga qodirligi yomonlashganligi yoki Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning muntazam ravishda bajarilmasligiga olib keladigan aniq axborotning yashirilishi;

5.1.4. Kafilning Bank oldidagi majburiyatlarining bajarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa hodisalar;

5.1.5. Shartnoma shartlarining buzilishi.

## **VI. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Taraflardan biri Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, aybdor Taraf ikkinchi Tarafga yetkazilgan zarar qismini qoplaydi va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga va Shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladi.

6.2. Kafil Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda neustoykadan tashqari yetkazilgan zararni to'liq miqdorda to'laydi.

6.3. Taraflar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash yoki majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun hisoblangan neustoykani to'lash majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

6.4. Kafilning telefon raqami o'zgarganligi, ishlamaganligi yoki yangi raqamini Bankka taqdim qilmaganligi sababli Kafilga SMS-xabarlar bormaganligi uchun Bank javobgar hisoblanmaydi.

## **VII. NIZOLARNI HAL ETISH**

7.1. Shartnoma shartlarini bajarish jarayonida vujudga keladigan kelishmovchiliklar Taraflar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

7.2. Taraflar kelishuvga erishmagan taqdirda va/yoki Kafil nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan talabnomada belgilangan muddatda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sudda ko'rib chiqiladi.

## **VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

8.1. Shartnoma Qarz oluvchi hamda Kafil tomonidan akseptlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

8.2. Shartnoma Taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

## **IX. ANTIKORRUPSIYAGA OID SHARTLAR**

9.1. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tarafning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi ta'qiqlanadi.

9.2. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo'yicha taklifini rad qilishi lozim.

9.3. Agar shartnoma taraflarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'luvchi dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tarafga bunday harakat sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma shaklda (yoki Bankning Komplayens nazorat boshqarmasi/Hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazi rahbariga aloqa kanallari yordamida) xabar berish majburiyatini oladi.

9.4. Xabarni olgan taraf haqiqatan korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lguncha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

9.5. Ushbu bo'lim qoidalari taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa taraf qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

9.6. Pora berish evaziga ikkinchi taraf vakilini, affillangan shaxsini, xodimini shartnoma shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni qoplab berish majburiyatini oladi.

## **X. YAKUNIY SHARTLAR**

10.1. Shartnoma elektron tarzda (elektron hujjat) tuzilib, Qarz oluvchi hamda Kafil tomonidan Kafillik ofertasini akseptlash orqali tasdiqlanadi va yozma ko'rinishidagi hujjatning yuridik kuchiga ega bo'ladi.

10.2. Shartnoma bo'yicha Taraflarning tartibga solinmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

10.3. Bank tomonidan Kafilga xat-xabarlar jo'natish quyidagi aloqa kanallari orqali amalga oshirilishi mumkin: Kafilning Bankka ma'lum bo'lgan manzillariga (rekvizitlariga) yozma shaklda jo'natish yoki Kafilning elektron pochta-siga, telefon raqamlariga, ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlariga xabar jo'natish yoki masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali elektron xabar jo'natish.

10.4. Kafil amalga oshirilgan to'lovlar va kredit qarzdorligi miqdori (asosiy qarz, foiz, penya qarzdorligi va muddati o'tgan qarzdorliklar) haqida, shuningdek Shartnoma bilan bog'liq boshqa holatlar bo'yicha uyali aloqa vositalari orqali SMS-xabarlar yuborilishiga Bankka o'z roziligini bildiradi.

## **XI. BANKNING MANZILI VA REKVIZITLARI**

**AT "Aloqabank"**

**Manzil:** \_\_\_\_\_

**MFO:** \_\_\_\_\_

**STIR:** \_\_\_\_\_

**Tel:** \_\_\_\_\_

## **XII. QARZ OLUVCHINING MANZILI VA REKVIZITLARI**

**F.I.Sh.:** \_\_\_\_\_

**Manzil:** \_\_\_\_\_

**Pasport ma'lumotlari:** \_\_\_\_\_

**JShShIR:** \_\_\_\_\_

**Aksept kodi:** \_\_\_\_\_

**Aksept vaqti:** \_\_\_\_\_

**Telefon raqami:** \_\_\_\_\_



### **XIII. KAFILNING MANZILI VA REKVIZITLARI**

**F.I.Sh.:** \_\_\_\_\_

**Manzil:** \_\_\_\_\_

**Pasport ma'lumotlari:** \_\_\_\_\_

**JShShIR:** \_\_\_\_\_

**Aksept kodi:** \_\_\_\_\_

**Aksept vaqti:** \_\_\_\_\_

**Telefon raqami:** \_\_\_\_\_



**(Kafillik ofertasi – Rus tilida)**

**ОФЕРТА О ЗАКЛЮЧЕНИИ ДОГОВОРА ПОРУЧИТЕЛЬСТВА**

Настоящая Оферта является официальным предложением АК «Алокабанка» (далее именуемый - «Банк») о заключении Договора поручительства (далее именуемый - «Договор») с физическими лицами.

Договор считается заключённым после ознакомления и полного, беспрекословного акцепта условий Оферты физическим лицом, являющимся поручителем (далее - «Поручитель»), а также физическим лицом, намеренным воспользоваться микрозаймом (далее - «Заёмщик»).

Ввод указанного в направленном Банком Заёмщику и Поручителю SMS-сообщении кода для подтверждения Оферты или подтверждение Оферты предложенным Банком иным способом расценивается как принятие и акцептование настоящей Оферты.

**1. ТЕРМИНЫ**

1.1. В настоящей Оферте используются следующие понятия:

**Микрозаём** – определенная сумма денежных средств, предоставляемая Банком физическим лицам (Заёмщикам) на основе принципов возвратности, платёжеспособности, срочности и обеспеченности, в национальной валюте, на условиях, предусмотренных настоящей Офертой и установленных индивидуальными условиями Микрозайма.

**Заёмщик** – физическое лицо, желающее воспользоваться Микрозаймом, подавшее в Банк заявление на оформление Микрозайма и оформляющее Микрозаём на основании Оферты о предоставлении микрозайма.

**Поручитель** – физическое лицо, которое несёт с Заёмщиком солидарную ответственность перед Банком за исполнение Заёмщиком всех обязательств по Микрозайму (которые существуют в настоящее время и могут возникнуть в дальнейшем).

**Оферта о предоставлении микрозайма** - утвержденное Банком и опубликованное для широкой публики предложение о предоставлении Микрозайма на указанных в ней условиях.

**Оферта о заключении договора поручительства** - утвержденное Банком и опубликованное для широкой публики предложение о заключении договора поручительства на указанных в ней условиях.

**Веб-сервис** – электронный программный инструмент Банка, используемый им для предоставления микрозайма.

**Акцепт** – Действия Поручителя, направленные на выражение его/её согласия и принятие предложенных Банком условий предоставления поручительства.

**2. ПРЕДМЕТ ДОГОВОРА**

2.1. Поручитель несёт ответственность перед Банком за полное исполнение Заёмщиком своих обязательств в случаях и на условиях, предусмотренных настоящим Договором.

### 3. ОБЩИЕ ПРАВИЛА

3.1. Поручитель на основании настоящего Договора несёт солидарную ответственность перед Банком за исполнение Заёмщиком всех обязательств (которые существуют в настоящее время и могут возникнуть в дальнейшем) по договору микрозайма от «\_\_» \_\_\_\_\_ года №\_\_ между Банком и Заёмщиком.

*(дата и номер договора микрозайма)*

3.2. Обеспеченные поручительством обязательства включают общую задолженность Заёмщика перед Банком по договору микрозайма, которая существует сейчас и может возникнуть в будущем, в том числе основную сумму Микрозайма, проценты, начисленные по Микрозайму, неустойки, фактические убытки, упущенную выгоду, судебные издержки, исполнительский сбор, деньги, выплаченные третьим лицам для взыскания задолженности и другие суммы.

3.3. В случае неисполнения или ненадлежащего исполнения Заёмщиком обеспеченных поручительством обязательств, Поручитель по первому требованию Банка уплачивает всю задолженность в срок и в размере, установленном обязательствами Заёмщика в кредитном договоре.

3.4. Банк вправе в безакцептном порядке (безусловно, без согласия) списывать (снимать) средства с любых счетов Поручителя, открытых в АК «Алокабанке» и других банках, в том числе с банковских карт для удовлетворения требований по кредиту, и Поручитель выражает на это свое согласие.

3.5. Поручителю, исполнившему обязательства Заёмщика по договору микрозайма, переходят права Банка по данному обязательству, а также права принадлежащие Банку в качестве залогодержателя, в том объеме, в котором Поручитель удовлетворил требование Банка.

3.6. Сумма микрозайма: \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) сумов.  
*(сумма) (сумма прописью)*

3.7. Сумма поручительства: \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) сумов.  
*(сумма) (сумма прописью)*

3.8. Срок действия микрозайма: \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_), до \_\_\_\_\_.  
*(срок) (срок прописью) (дата)*

3.9. Процентная ставка по микрозайму – \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) процентов  
*(размер) (размер прописью)*

годовых. При этом проценты по Микрозайму начисляются ежедневно с даты предоставления Микрозайма на остаточную сумму Микрозайма до дня полного погашения основного долга. Проценты начисляются исходя из годового базового периода в 365 дней.

3.10. Повышенная процентная ставка по просроченной основной части Микрозайма: начисляется в \_\_\_\_\_ кратном размере процентной ставки, приведённой  
*(размер)*

в пункте 3.9 Договора, т. е. составляет \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) процентов.  
*(размер) (размер прописью)*

3.11. В соответствии с Договором Поручитель выражает своё согласие:  
– на получение и обработку персональных данных;

– на отправку SMS-сообщений/электронной почты/аудио вещания/почты с использованием средств связи, на отправку почтовых отправлений и уведомлений через информационно-коммуникационные службы;

– на обработку персональных данных из Государственного центра персонализации, а также получение информации с использованием персональных данных кредитных бюро, налоговых органов, жилищно-коммунальных хозяйств, операторов мобильной связи, процессинговых центров («Uzcard», «Нито» и др.), коммерческих банков и других внешних источников;

– Банк имеет право на (безусловное, без согласия Поручителя) безакцептное списание (снятие) комиссии в размере, предусмотренном действующими Тарифами Банка, за автоматическое списание Банком с помощью соответствующего сервиса средств, необходимых для удовлетворения требований по кредиту, с любых счетов Поручителя, открытых в АК «Алокабанке» и других банках, а также с банковских карт.

#### **4. ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ СТОРОН**

##### **4.1. Права Банка:**

4.1.1. Предоставление информации об исполнении Поручителем своих обязательств по Микрозайму в Кредитные бюро и Государственный реестр кредитной информации;

4.1.2. Использование указанных в Договоре каналов связи для информирования Поручителя о выплатах по Микрозайму;

4.1.3. В случае неисполнения Заёмщиком обязательств по договору микрозайма, списание (снятие) в безакцептном порядке необходимых денежных средств и всех начисленных неустоек с любых счетов Поручителя, открытых в Банке и других банках, в том числе с банковских карт для удовлетворения требований по микрозайму;

4.1.4. Безакцептное списание (снятие) комиссии в размере (безусловное, без согласия Поручителя), предусмотренном действующими Тарифами Банка, за автоматическое списание Банком с помощью соответствующего сервиса средств, необходимых для удовлетворения требований по кредиту, с любых счетов Поручителя, открытых в АК «Алокабанке» и других банках, а также с банковских карт;

4.1.5. В случае неисполнения или ненадлежащего исполнения Заёмщиком обязательств по договору микрозайма взыскание за счёт средств на всех счетах Поручителя, а также со всего его имущества (имущественных прав);

4.1.6. Обращение к Поручителю по указанным в Договоре каналам связи для проверки предоставленной Поручителем информации или проведения дополнительной идентификации (проверки личности);

4.1.7. Получение и использование любой информации о Поручителе, не противоречащей законодательству Республики Узбекистан, в ходе оценки его платёжеспособности;

4.1.8. Осуществление телефонных звонков на телефонные номера и аккаунты Поручителя в социальных сетях, запись звонков Поручителя,

направление писем, сообщений по электронной почте и SMS-сообщений на известные Банку адреса (реквизиты) Поручителя об исполнении Заёмщиком и Поручителем своих обязательств по настоящему Договору.

#### **4.2. Обязательства Банка:**

4.2.1. В случаях досрочного взыскания Микрозайма, уведомление об этом Поручителя по указанным в Договоре каналам связи;

4.2.2. При списании Банком денежных средств с банковского счёта и (или) вклада (в том числе с банковских карт) Поручителя без его поручения для погашения просроченной задолженности по Микрозайму, не позднее следующего рабочего дня со дня списания, по указанным в Договоре каналам связи Поручителю направляется уведомление (справка) с указанием суммы и причин списания, а также лица, в чью пользу, было произведено списание средств со счёта Поручителя.

#### **4.3. Права Поручителя:**

4.3.1. Досрочное погашение Микрозайма в любое время без наложения штрафных санкций;

4.3.2. Досрочное расторжение настоящего Договора при полной выплате Банку всех платежей по микрозайму.

#### **4.4. Обязательства Поручителя:**

4.4.1. Нести солидарную ответственность перед Банком в случае неисполнения или ненадлежащего исполнения Заёмщиком своих обязательств;

4.4.2. Погашение Заёмщиком полученного микрозайма и начисленных по нему текущих и просроченных процентов в случае их несвоевременной уплаты; выплата судебных издержек по взысканию долга и других убытков, понесенных Банком из-за неисполнения или ненадлежащего исполнения Заёмщиком своих обязательств;

4.4.3. Оплата банковской комиссии согласно действующему тарифу за снятие Банком денежных средств со счёта Поручителя по Договору;

4.4.4. Уведомление Банка об изменении фамилии или имени, номера телефона, адреса регистрации, места жительства, паспортных данных и об иных обстоятельствах, влияющих на исполнение обязательств по Договору в течение 3 (трёх) рабочих дней по указанным в Договоре каналам связи или при посещении центров оказания банковских услуг;

4.4.5. Уведомление Банка о мерах правового воздействия, экономических и финансовых штрафах, экономических и финансовых санкциях, применённых или применяемых правоохранительными, надзорными или судебными органами в отношении Поручителя в течение 2 (двух) рабочих дней со дня получения Поручителем соответствующего уведомления от вышеприведенных органов;

4.4.6. Предоставление Банку права предъявить действительное, безотзывное и безусловное требование о безакцептном списании суммы, необходимой для исполнения платёжных обязательств по Договору со всех банковских счетов, открытых в коммерческих банках.

## **5. СЛУЧАИ НЕИСПОЛНЕНИЯ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ**

5.1. Любое из следующих обстоятельств считается случаем неисполнения обязательств:

5.1.1. Неосуществление платежей по Микрозайму, процентам и/или другим платежам в установленные Договором сроки;

5.1.2. Введение Банка в заблуждение путём умышленного и осознанного предоставления Поручителем недостоверной и ложной информации;

5.1.3. Сокрытие достоверной информации об ухудшении платёжеспособности Поручителя или о систематическом неисполнении обязательств по Договору;

5.1.4. Иные события, которые могут повлиять на исполнение Поручителем своих обязательств перед Банком;

5.1.5. Нарушение условий Договора.

## **6. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ СТОРОН**

6.1. В случае неисполнения или ненадлежащего исполнения одной из Сторон своих обязательств по Договору, виновная Сторона возмещает другой Стороне причинённый ущерб и несёт ответственность в соответствии с Гражданским кодексом Республики Узбекистан, иными действующими законами и Договором.

6.2. В случае неисполнения или ненадлежащего исполнения Поручителем своих обязательств по Договору, в дополнение к неустойке Поручитель возмещает причинённый ущерб в полном объёме.

6.3. Возмещение ущерба, причинённого в результате неисполнения или ненадлежащего исполнения Сторонами своих обязательств по Договору, или уплата неустойки за неисполнение или ненадлежащее исполнение обязательства не освобождает Стороны от исполнения своих первоначальных обязательств.

6.4. Банк не несёт ответственность за SMS-сообщения, не полученные Поручителем в результате изменения его телефонного номера, неработоспособности телефонного аппарата или непредоставления Банку нового номера телефона.

## **7. РАЗРЕШЕНИЕ СПОРОВ**

7.1. Разногласия, возникающие в ходе исполнения условий Договора, разрешаются Сторонами путём переговоров.

7.2. В случае не достижения Сторонами соглашения и/или ненадлежащего исполнения Поручителем требования о разрешении спора до суда в срок, указанный в требовании, спор будет рассматриваться в суде в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистана.

## **8. СРОК ДЕЙСТВИЯ ДОГОВОРА**

8.1. Договор вступает в силу со дня его акцепта Заёмщиком и Поручителем.

8.2. Договор действует до полного исполнения Сторонами своих обязательств.

## **9. АНТИКОРРУПЦИОННЫЕ УСЛОВИЯ**

9.1. Сторонам, их аффилированным лицам, сотрудникам или иным участникам запрещается предлагать, предоставлять, давать денежные ценности или услуги, прямо или косвенно, с целью повлиять на принятие решения другой стороной при выполнении условий настоящего Договора.

9.2. Стороны, их аффилированные лица, сотрудники или иные участники должны отклонить предложение других участников Договора о предоставлении денежных средств, ценностей или услуг, сделанных прямо или косвенно, с целью повлиять на принятие решения при выполнении условий настоящего Договора.

9.3. При наличии у какой-либо Стороны Договора сведений, подозрений или оснований для подозрения в совершении коррупционного деяния в связи с исполнением условий настоящего Договора, соответствующая Сторона обязуется уведомить об этом другую Сторону в письменной форме в течение 5 (пяти) рабочих дней со дня совершения такого деяния (или уведомить руководителя Управления комплаенс-контроля/Регионального центра комплексных услуг Банка по каналам связи).

При наличии у сторон Договора сведений о совершении коррупционного деяния, связанного с выполнением условий настоящего Договора, оснований для подозрения, подозрения

9.4. Сторона, получившая уведомление, вправе приостановить исполнение своих обязательств по настоящему Договору до получения подтверждения того, что коррупционное действие действительно не было совершено или не будет совершено.

9.5. При подтверждении факта нарушения одной Стороной правил настоящего раздела и/или в случае непредставления другой Стороной информации о результатах рассмотрения уведомления о нарушениях, другая Сторона вправе полностью или частично расторгнуть договор в одностороннем порядке.

9.6. Сторона, которая за взятку склонила к себе представителя, аффилированного лица или работника другой Стороны при выполнении условий настоящего Договора, обязуется возместить ущерб, причиненный другой Стороне.

## **10. ЗАКЛЮЧИТЕЛЬНЫЕ ПОЛОЖЕНИЯ**

10.1. Договор заключается в электронной форме (электронный документ), подтверждается Заёмщиком и Поручителем путём акцепта Оферты о предоставлении микрозайма и имеет такую же юридическую силу, как и письменный документ.

10.2. Взаимоотношения Сторон, неурегулированные настоящим Договором, регулируются в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан.

10.3. Отправка Банком корреспонденции Поручителю может осуществляться по следующим каналам связи: в письменной форме через известные Банку адреса (реквизиты) Поручителя, либо отправкой сообщений на электронную почту,

телефоны и аккаунты Поручителя в социальных сетях, либо отправкой электронных сообщений через системы дистанционного обслуживания.

10.4. Поручитель выражает своё согласие на получение от Банка SMS-сообщений о произведённых Поручителем платежах и размере кредитной задолженности (основном долге, процентах, пени и просроченной задолженности), а также о других обстоятельствах, связанных с Договором, через устройства мобильной связи.

### 11. АДРЕСА И РЕКВИЗИТЫ БАНКА

АК «Алокабанк»

Адрес: \_\_\_\_\_

МФО: \_\_\_\_\_

ИНН: \_\_\_\_\_

Тел.: \_\_\_\_\_

### 12. АДРЕСА И РЕКВИЗИТЫ ЗАЁМЩИКА

Ф.И.О.: \_\_\_\_\_

Адрес: \_\_\_\_\_


Паспортные данные: \_\_\_\_\_

ПИНФЛ: \_\_\_\_\_

Код акцепта: \_\_\_\_\_

Время акцепта: \_\_\_\_\_

Номер телефона: \_\_\_\_\_



### 13. АДРЕСА И РЕКВИЗИТЫ ПОРУЧИТЕЛЯ

Ф.И.О.: \_\_\_\_\_

Адрес: \_\_\_\_\_

Паспортные данные: \_\_\_\_\_

ПИНФЛ: \_\_\_\_\_

Код акцепта: \_\_\_\_\_

Время акцепта: \_\_\_\_\_

Номер телефона: \_\_\_\_\_



